



QO'QON XONI XUDOYORXONNING MAKKAGA HAJ

SAFARI TAFSILOTLARI

Uraimjonova Malika Qahramon qizi

O'zbekiston Miliy Universiteti tarix fakulteti

2-kurs 204-guruh talabasi

malikauraimjonova0109@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6865931>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 20th July 2022

KEY WORDS

Qo'qon xonligi,
Xudoyorxon, haj
safari, vatavjudolik,
Makkai Mukarrama ,
Eron, fon Kaufman..

ABSTRACT

Ushbu maqola Qo'qon xoni Xudoyorxonning taxtdan ketib, niyat qilib yurgan ishi ya'ni hajga borishi. Haj safariga borishdan avvalgi tayyorgarliklari, Makkada yurgan kezaridagi vatanjudolik tafsilotlari, boshiga qanday ko'rguliklar tushganligi haqida manbalar asosida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Qo'qon xonligi tarixiga nazar tashlasak har bir xonning o'z tarixi bor. Ularning orasida xonlik uchun jon kuydirganlari bo'libgina qolmay, balki ,xonlarning orasida vatandan ketib ,vatanjudolikda yurgan xon ham bordir . Vatandan uzoqda yashash juda og'irdir . Axir o'zga yurtda shoh bo'lguncha o'z yurtida gado bo'l deyishadi . Mana shunday vatanjudolikni boshidan o'tkazgan Qo'qon xoni Xudoyorxondir

Xudoyorxon taxtga uch marotaba – 1845,1842 va 1865-yillarda chiqib deyarli ,yigirma besh yil hukmronlik qilgan. Akasi Mallaxon tomonidan 1858-yilda, Alimquli tarafidan 1863-yilda taxtdan judo qilingan. Uning uchinchi marotaba taxtdan ketishi juda fojiali bo'ladi. Xon taxtdan ketishidan 2-3 yil oldin qirg'iz jamoalari orasidan Ishoq Hasan o'g'li degan nosfurush Samarqandda mullavachchalik qilayotgan, aslida xon avlodlaridan bo'lgan Po'latxon nomi bilan taxtga davogarlik qiladi. Ana

shunday davrlarda xonning ishongan lashkarboshilari Abdurahmon oftobochoi , Iso Avliyogacha , Marg'ilondagi bek Sulton Murod , farzandlari bo'lmish Nasriddin va Muhammad Aminbekkacha o'z odamlari bilan asta sekin Po'latxon huzuriga o'tib ketadilar. Po'latxon to'g'risida arxiv hujjatlarda, unga zamondosh ,muarrixlar asarlarida uni "Zaqqoki soniy" deb ataydilar. Buning sababi u juda zolimkor bo'lib, xattoki yosh go'daklarni ham kundaga qo'yib chopgan. Xudoyorxonning uchinchi hukmronligi davrida Turkiston 1867-yilga kelib, general-gubernatorlikka aylantirildi. Xudoyorxon xonligining 3-muddatida qariyb 8 yil mobaynida ana shu o'ta shafqatsiz va ilon yog'ini yalagan general gubernator bilan murosayu madora yo'llarini izlab , saltanatni boshqargan.

Xudoyorxon ham Allohning sevgan bandalari qatoriga kirs kerakki ,o'z hayotida qismatlarini oldindan sezgandek



go'yo. Hukmronligining so'ngida hajga ketishini va o'sha yerlarda qolib ketishini sezgandek, Qo'qonda hali to's to'palon boshlanmasdan o'z mingboshisi Abdurahmon oftobochiga Makka va Madinada takyalar ko'rishdek oliyjanob niyatini ma'lum qilib, bu ishni amalga oshirish uchun o'sha tomonlardan bir insof-tavfiqli insonni topib kelishini buyuradi. Abdurahmon haj safari davomida Hoji Muhammad sodiqni topib, ung xonning niyatini ma'lum qiladi va u bilan birga Qo'qonga keladi. Lekin tashqi ko'rinishidan ko'rimsiz bo'lgan hojini Xudoyorxon yoqtirmaydi va hojiga sovg'a salomlar berib uni qaytarib yuboradi. Bundan ko'rishimiz mumkinki Xudoyorxon Haj safariga ketishga har tomonlama tayyorgarligini kuchaytirgan. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin Xudoyorxon o'zi istagandek tashqi ko'rinishi ko'rkam Ibrohimjon degan bu habarni eshitib, xon huzuriga kiradi va "Makkada takya solmoq uchun bir muncha mablag' tayinlangan" deydi misvoqchi boy. -Ani bir yil tijoratga ko'yib, ikki chand qilib, so'ngra yuborib qildirish darkor edi" deydi. Xudoyorxon esa mablag'ni ikki chand qilish mehnatini o'ziga zimmasiga oladi deb, unga 2ming tillo pulni berib yuboradi. Lekin Ibrohimjonboy Moskvaga ketib ayshishratga berilib, pullarni yo'q qilib yuboradi. Shu o'rinda Xudoyorxonning shoshqaloqlik qilib qilgan ishidan uni Makka ziyoratiga xaddan oshiq shoshilayotganini yoki juda sodda-go'l hukmdorligini anglash mumkin. Bu orada vaqtlar o'tib Qo'qon xonligini taxtini tashlab Toshkentga kelgan, bu yerdan Orenburgga borib nazorat ostida saqlanayotgan sobiq xon Moskvaga odam yuborib Ibrohimjonni tutib kelishini aytadi. U kelganda xon undan pulini va ko'paygan

tuyalarini ko'rmoqchiligini aytganda, boy "Siz mandan aqcha talab qilganda bir hujjat darkor, tegishli yerga ko'rsating, bo'lmasa bu behuda gaplardan foyda yo'q"- deb javob beradi. Xon "Xudo bilsin" deydi xalos. Sarson sargardorlikdan keyin unga Hoji Sodiq yordam ko'rsatadi. Xon esa oldin qilgan ishidan afsuslanib uzr so'raydi. Isxoqxon Ibrat "Tarixi Farg'ona"da Orif rikob tldan hikoya qiladi: "Toshkentdan jo'nab ...Turkistonga borildi. Xon Muso Ali mingboshi hovlisiga tushdi. Bekzodalar va ayolga -O'rmonbek, Fonsurullobek va Og'acha oyimga alohida hovli tayyorlandi. Anda xon besh kun turib, ahli ayoli bn vidolashdi va Turkistondin jo'nadik". Orenburgdan haj niyatida yo'lga chiqqan Xudoyorxonning qancha mablag'i bo'lganligi Marg'ilonlik shoir Havoiy-Umidiyning keyinchalik yaratgan "Maktuchai Xon" manzumasida "O'zin naqdidin ellik ming so'm otib, Minib oy uzra qochti yo'lga solib" misralarida ifodalanadi. Xonning haj safari uchun yo'lga chiqqandan keyin kirib borgan dastlabki mamlakat Eron, ba'zi manbalarda Eron u orqali Iroqda Makkai mukarramaga borgani aytilsa Isxoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona"sida "Anda (Eronda) Amir Nasriddin shoh ekan. Anda xat yozin sozlashganda, xonni kirmog'i anga xat yuborib so'zlashganda, xonni kirmog'iga qabul qilmay, afg'on amiri Sheralixon ham olmay, to'g'ri Afg'onistonning ichi ila Peshovor shahriga yurib, Peshavorga kirganda hamshaharlar istiqbol qilib to'g'ri Peshavorga kirib, Go'rkand degan eski o'rdaga tushgan ekan. Ibratning yozishicha, shu yerdan xon Ahmadobodga, so'ngra Bumbayga, nihoyat Jidda orqali Makkai mukarramaga borgan. Xudoyorxon haj ziyoratiga borish jarayonida ham, haj arkonlarini ado etishda, xatto undan keyin



ham uning boshiga ko'p vatanjudolik musiatlari tushdi. Masalan Xudoyorxon o'z jamg'armasidan 50 000 so'm olib yo'lga tushgani uni yo'ldagi o'g'rilar talab ketgani, undan faqatgina bitta oltin soatgina qolgani bor. Yana "Afg'aniston amiri Sheralixon Kobuldan yuborgan farmoyishi bo'yicha, Xudoyorxonning qo'lidagi barcha pullarini olib, o'zini Eronga o'tkazib yuboradi. Lekin toleyi kulib Bumbaydagi farg'onaliklar unga 1000 rubl pul berib, Haj yo'lga solib yuboradi. Yo'l yo'lakay o'z hamyurtlaridan hoji Sodiq Konibodiyar bilan uchrashib, ulardan iltifot ko'rgan xon Jidda orqali Makkai mukarramaga yetib oladi. Makkadagi eski o'rdada Hoji Shahid Kalon eshon, Nmangoniy va uning solih farzandlari Yusufxon to'ra va Omon xalifa bilan istiqomad qilib, har kuni besh vaqt namozlarini ado etib yuradi. Haj ruknlarini ado etib, haj muddati tugagandan keyin ham ko'p musibatlarni ko'radi.

Xudoyorxon xonligi vaqtida bir kishini shahardan badarg'a qilib, tasarrufidagi boyliklarini musodara qilganda, u bechora hajga borib, bir necha yildan beri o'sha yerda turgan edi. U kishi Xudoyorxonni ko'rib, alami ustida " Ey noinsof, manga muncha jabr-zulm qilib, ahiyri o'zingni ham ahvoling shul bo'ldimu?-deb tosh bilan o'g'ziga urib, Xudoyorxonni tishini sidirgan. Isoqxon Ibrat shundan so'ng tish sindirgan kishining kimligi va nega bunday qilganligi xususida ham xonning mahramlaridan bo'lmish Mulla Muhammad Umarbek Andijoniy hikoyasi bo'yicha yangi ma'lumotlar beradi. "Baqte zobidlar tergovchini olib borib hibs qilganda u Namangon fuqarosidan to'raqo'rg'onlik Solih Sarkor degan Ortiq sarkorni o'g'li ekan. Na uchun o'z xoningni urding?" deganlarida aytganki " Men bu kishiga sarkor erdim. Namangan tanobini yig'ib

berganimda, xazinaga zarar qilgansan deb, mani hovli-haramlarimdan judo qildi" deganda unga to'rt yil hibsga berilganda Xudoyorxon "Man avf etdim" degan. Vaqt ko'p narsani o'zgartiradi deganlaridek Xudoyorxonga ham vaqt ham haj ziyorati juda yaxshi tasir qilgandek go'yo. Qalbi yanada poklanib yomonlikka yaxshilik ila javob beradi. Shular yetmagandek Xudoyorxonga ruhan emas, balki jismonan ham so'g'ligida yomonlashuv bo'ladi. Xon Makkada yana bir muncha muddat istiqomat qilgach, uning bilagiga yomon yara chiqadi. Bu haqida xonning o'zi keyinchalik fon Kaufmanga yozgan maktubida aniq ma'lumot beradi. Bir necha vaqtlardan so'ng Makkada qo'limizga bir jarahot chiqdi va bu jarahotin do'ktori Makka bir necha go'shtlarni kesib oldi va yana olti oy Makkada turdik. Jarohat yaxshi bitmadi va yana bir necha odamlar so'zlariki, Hindistonda ko'p yaxshi do'ktorlar bor, dedilar. Ul sababdan Bumbayga keldik. Do'xtiri ingliz jarohatni ko'rdi, dori-yu darmon qildi. Muddati besh oy Bumbayda turdik. Jarahat yaxshi bo'ldi". Ma'lumotlardan chamalab hisoblasak Xudoyorxon bu ko'rgulikdan bir yillar azob chekkan.

Xudoyorxon ko'p ko'ngilsizliklarni boshdan kechirib, og'ir kasallikdan so'ng Turkiston g'eneral-gubernatoriga avf so'rab yozgan bir maktubida quyidagicha izohlaydi: "... Orenburg gubernatoridan Makkaga javob istadim. Jvob bermadi. Bahuzur joyimizda o'turarduk. Va yana bir pora odamlarimizning tarafidin gubernatorga shikoyat qilibdurlarki, ot oldi va yana odam jam qilur debdurlar. Bir necha odamlar ul tarafdun bizga habar berdilarki, gubernatur bahodur sizdan ko'p ranjibdur deb so'zlandi. B asnoda uyimizga og'ri keldi va ana bir haftalik tushdi, Undan



so'ngra bir vahima tushtiki, bir kecha kelib o'ldurdurlar deb fikr etdimki, Makkaga ketmak yaxshidir deb. Ketmakni ixtiyor qilib, bir xat bitib uyimizda qo'yduqki, biz tarafdin kimga ziyon bo'lmasin deb, Makkaga tarafga chiqib keldik" – deyilan. Ushbu xatga ko'proq e'tibor berib qaralsa uning yozilish jihatidan xonning buyurig'i bilan bilimdon va zukko inson tomonidan yozilgan bo'lishi mumkun. Lekin xatdagi tafsilotlarning berilishidan aniq Xudoyorxon tomonidanligi sezilib turibdi. Xonning haj tafsilotlari mana shunday qiziqarli voqealarga boy bo'lgan. Uning

safari davomida o'z oilasining habaridan habar olganmi yo'qmi degan savol tug'iladi. Albatta olgan . "Bizning iltimosimiz buyuk podshohga shuldirki, bu qilingan gunohimizni avf etsin...Umidimiz janobingizdin shuldirki, o'g'ullarimiz ahvolotidin habar olursiz" – deyilgan maktublaridan bilsak bo'ladiki Xudoyorxonning ahvoli og'irligidan, farzandlarining holidan qayg'urayotganligidan va albatta bu iltimos mazmunidagi xatdan uning siyosiy hayotda ham mavqeyi ancha pasayib ketganini bilish qiyin emas.

References:

1. Yusupov Sh. Xonning so'ngi ilinji.// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004. Dekabr.Nº
2. Yusupov SH.Xufiya qatamlar.T.:Ma'naviyat,1999.56-b
3. Yusupov Sh. Xudoyorxon va Furqat.T.:Sharq,1995.22-b